


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**HYPERBOLE IN LITERARY WORKS AND ITS DISTINCTIVE FEATURES****Gulsevar Shodmonova***Student of the Uzbek Language and Literature Program**Faculty of Philology**Shahrisabz State Pedagogical Institute**Email: shodmonovagulsevar849@gmail.com**Shahrisabz, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: exaggeration, hyperbole, revitalization, poetic art, ghazal, folk poem, affectation, emotion, individuality.

Received: 11.06.26**Accepted:** 12.06.26**Published:** 13.06.26

Abstract: This article examines the theoretical and practical issues of the art of hyperbole, which has a unique place among the means of artistic expression. The article comprehensively covers the linguistic and stylistic nature of hyperbole, its underlying content and essence, and its role in increasing the power of influencing the reader's emotions.

BADIY ASARLARDA GIPERBOLA VA UNING O'ZIGA XOS JIHLTLARI**Gulsevar Shodmonova***Shahrisabz davlat pedagogika instituti**Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi**shodmonovagulsevar849@gmail.com**Shahrisabz, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: mubolag'a, giperbola, jonlantirish she'riy san'at, g'azal, xalq dostoni, ta'sirchanlik, tuyuq, fard.

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy tasvir vositalari ichida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan giperbola san'atining nazariy va amaliy masalalari tadqiq etiladi. Maqolada giperbolaning lisoniy va uslubiy tabiati, uning tag mazmun-mohiyati hamda kitobxon hissiyotiga ta'sir ko'rsatish kuchini oshirishdagi o'rni atroflicha yoritilgan.

ГИПЕРБОЛА В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ И ЕЁ ХАРАКТЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ**Гулсевар Шодмонова***Студентка направления «Узбекский язык и литература»**Филологического факультета*

Шахрисабзский государственный педагогический институт
Электронная почта: shodmonovagulsevar849@gmail.com
Шахрисабз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: преувеличение, гиперболы, возрождение, поэтическое искусство, газель, народная поэма, аффектация, эмоция, индивидуальность.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты искусства гиперболы, занимающего особое место среди средств художественного выражения. Статья всесторонне охватывает лингвистическую и стилистическую природу гиперболы, её содержание и сущность, а также её роль в усилении эмоционального воздействия на читателя.

Kirish. Badiiy asarlarda tasvirning ta'sirchanligini oshirishda giperbola (mubolag'a) san'ati beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu san'at turi zamonaviy adabiyotshunoslikda narsa va hodisalarni, qahramonlarning his-tuyg'ularini bo'rttirib ko'rsatish, ularni o'ta darajada sayqallash orqali namoyon bo'ladi. Giperbola yordamida muallif oddiy voqelikni yanada yorqinroq, esda qolarliroq va ta'sirchanroq qilib tasvirleydi. Natijada o'quvchi asarda ifodalangan fikr va tuyg'ularni chuqurroq his etadi, voqealarning ruhiy va estetik ta'siriga ko'proq beriladi. Mubolag'a badiiy ifodaning obrazlilikini kuchaytirib, asar tiliga o'ziga xos joziba bag'ishlaydi. U nafaqat tasvirning kuchini oshiradi, balki muallifning ichki kechinmalari, qarashlari va estetik idealini ham yanada aniqroq ochib berishga xizmat qiladi. Giperbola qo'llanilgan matnlarda voqea-hodisalar hayotiy chegaralardan chiqib, ramziy va badiiy umumlashma darajasiga ko'tariladi. Shu jihatdan, mubolag'a san'ati adabiy asarlarning badiiy qiymatini belgilovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Giperbola qahramonlarning ruhiy holatini, ichki iztiroblari yoki quvonchlarini kuchliroq ifodalashda alohida o'rin tutadi. U orqali yozuvchi o'quvchiga oddiy tasvir orqali yetib bormaydigan nozik kechinmalarni ham yetkazadi. Ayniqsa, she'riyatda mubolag'a obraz yaratishda, ritm va ohangni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli giperbola nafaqat badiiy bezak, balki asarning mazmuniy va estetik qatlamini boyituvchi muhim uslubiy vosita sifatida qaraladi. Yana bir jihat shundaki, giperbola asarda dramatismni kuchaytirishga xizmat qiladi. Muallif voqealarni ataylab keskinlashtirib, o'quvchini hayratga soladi, uning diqqatini muhim nuqtalarga jamlaydi. Bu esa asarning umumiy ta'sir kuchini oshirib, o'quvchini voqealar rivojiga yanada chuqurroq jalb etadi. Ayrim hollarda mubolag'a orqali kulgili yoki kinoyaviy ohang ham yuzaga keladi, bu esa asarga rang-baranglik va badiiy boylik baxsh etadi. Giperbola xalq og'zaki ijodida ham keng qo'llanib kelgan bo'lib, dostonlar, ertaklar va maqollarda u qahramonlarning kuch-qudratini, jasoratini yoki donoligini alohida bo'rttirib ko'rsatishda muhim

vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu an‘ana yozma adabiyotga ham ko‘chib o‘tib, turli davr va adabiy yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topgan. Shunday ekan, mubolag‘a san‘ati nafaqat badiiy tasvirni boyitadi, balki milliy adabiy tafakkurning shakllanishi va rivojida ham muhim o‘rin egallaydi

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Badiiy tasvir vositalari orasida giperbola (mubolag‘a) san‘ati alohida o‘rin egallaydi. U orqali yozuvchi yoki shoir voqea-hodisalarni bo‘rttirib, o‘quvchiga yanada ta‘sirchan va esda qolarli tarzda yetkazadi. Ayniqsa, inson ruhiy kechinmalari, iztiroblari va quvonchlarini ifodalashda mubolag‘a muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, giperbola nafaqat tasvirni kuchaytiradi, balki asarning estetik qimmatini ham oshiradi. Adabiyot tarixiga nazar tashlasak, bu san‘at turi mumtoz va zamonaviy asarlarda keng qo‘llanib kelinayotganini ko‘rish mumkin. Nizomiy Aruziy Samarqandiy "Chahor maqola" asarida shoirlik san‘atining mohiyati aynan mubolag‘a (bo‘rttirish) ekanini ta‘kidlaydi: "Shoirlik shunday bir san‘atki, u bilan kichik narsani ulug‘ ko‘rsatish, xunuk narsani chiroyli ko‘rsatish va aksincha, bor narsani yo‘qdek, yo‘q narsani bordek tasvirlash mumkin. Bu esa faqat quvvatli mubolag‘a orqali amalga oshadi." Bu uslubni biz deyarli 80% mumtoz adabiyotda ya‘ni g‘azal, tuyuq, fard kabi mumtoz she‘riyatda uchratishimiz mumkin. Masalan, Alisher Navoiy bir asarida shunday deb yozadi:

Yomon holimg'a bag'ri og'rigay har kimsakim ko'rgay,

Bag'ir partolasidan qonga bulg'ong'on uzorimni.

Bu g‘azalni tahlil qiladigan bo‘lsak, mening bag‘rim qonga to‘ldi, ya‘ni mubolag‘a san‘atidan ustalik bilan foydalangan Alisher Navoiy va bu bag‘rimni qonga to‘lganini ko‘rgan insonlarning bag‘ri, yuragi og‘riydi, deydi. Mubolag‘a san‘ati asarni jonlantirish, unga badiiy sayqal berish uchun xizmat qiladi. Buni qarangki, biz giperbolani badiiy asarlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, dostonlarda, badiiy asarning barcha turlarida va she‘riyatda ham biz giperbolani uchratishimiz mumkin. Misol qilib, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidan biz jumlani olaylik:

Iskalab bag‘ringga olsang na bo‘ldi,

Yig‘lay-yig‘lay ichim qonlarga to‘ldi.

Bu jarayon Go‘ro‘g‘lining tog‘asi jiyanini go‘rdan o‘z uyiga olib ketish holatidagi vaziyat. Buni qarangki, yig‘lab-yig‘lab ichim qonga to‘ldi deya vaziyatni o‘quvchiga yanada tushunarli bo‘lishi uchun, uning yodida ko‘proq qolishi uchun bo‘rttirib, hayotimizda bo‘lishi mumkin bo‘lmagan holatni ko‘rsatmoqda. Yoki boshqa bir misolda ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni "Alpomish" dostonida:

G‘arib bo‘lib ko‘zdan yoshim tizildi,

Diyda giryon bo‘lib bag‘rim ezildi.

Ichim kuyib, yurak-bag‘rim ezildi,

Zakot deydi, mening ko‘nglim buzildi.

Bu misralarda ko'rishimiz mumkinki, boshlanishidan to so'nggi baytlargacha giperbola mavjud, chunki qahramonning ko'zyoshlari ko'zlari atrofida tizilmaydi yoki insonning ichi faqat majoziy ma'noda kuyishi mumkin .

Badiiy asarlardan giperbolani tahlil qiladigan bo'lsak, O'tkir Hoshimovning "Quyosh tarozisi" hikoyasida shunday jumla bor: "Quyosh ufqqa lab bosdi. Kichkina shalaq arava tuproq yo'ldan imillab borar edi. Qora eshak chillakday ingichka oyoqlari bilan tuproq changitib, aravani sudrab borar, g'ildiraklar nola chekkan kabi hazin g'iyqillardir" . Biz bu jumlada quyosh ufqqa lab bosdi gapini olamiz, chunki bu gap ham jonlantirish ya'ni quyoshni, ham mubolag'a san'atini ham yuzaga keltirgan va g'ildiraklar nola chekkan... so'zlarida ham aynan shu hodisa yoki "oy koptokday sakrab-sakrab unga ergashib ketayotgandek bo'lar" bu gapda ham oy koptokdek sakrashi asli sakramasligi giperbola, koptokka o'xshatilayotgan oy esa tashbeh san'atini hosil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyot nazariyasida badiiy tasvir vositalari orasida mubolag'a (giperbola) san'ati alohida e'tirof etiladi. U orqali ijodkor voqelikni oddiy bayon qilish bilan cheklanib qolmay, balki uni yanada kuchaytirib, o'quvchi ongida yorqin va unutilmas obrazlar hosil qiladi. Ayniqsa, she'riyatda mubolag'a san'ati his-tuyg'ularni chuqurroq ifodalash, tasvirni ta'sirchan qilish va badiiy nutqqa joziba bag'ishlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois ham qadimiy adabiyotshunoslikda bu san'at turiga alohida e'tibor qaratilgan va u ko'plab nazariy asarlarda keng yoritilgan. Sharq mumtoz adabiyotida mubolag'aning o'rni nihoyatda katta bo'lib, u shoir mahoratini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida qaralgan. Ko'plab allomalar she'riyatning go'zalligi va ta'sir kuchi aynan mubolag'a orqali yuzaga chiqishini ta'kidlaganlar. Shu jihatdan, giperbola oddiy fikrni san'at darajasiga olib chiqadigan, uni sayqallab, o'quvchiga estetik zavq ulashadigan vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ana shunday nazariy qarashlar asosida Rashiduddin Vatvot "Hadoyiq us-sehr" asarida shunday degan: "She'rning eng yaxshisi — eng yolg'onchirog'idir. Chunki shoir narsani boricha tasvirlasa, bu oddiy nutq bo'ladi. Agar u narsaning sifatini haddan oshirib aytsa, tinglovchining ko'ngli zavqlanadi va hayrati osha boshlaydi." Chunki shoir narsani boricha tasvirlasa, bu oddiy nutq bo'ladi. Agar u narsaning sifatini haddan oshirib aytsa, tinglovchining ko'ngli zavqlanadi va hayrati osha boshlaydi." O'tkir Hoshimovning shoh asarlaridan yana biri "Ikki eshik orasi" romanida "Ufqni qizg'ish tumanlik qoplagan. Kun bo'yi yona-yona toliqqan osmon endi yaxlit chog'ga aylanib tinchigandek" bayti mavjud. Ushbu baytda "yona-yona toliqqan osmon" so'zlari giperbola va jonlantirish san'atlarini paydo qilgan, chunki osmon yonmaydi va toliqmaydi. Bu orqali osmonni ideallashtirish va sayqallash uslubini ko'rishimiz mumkin. Yoki ushbu ijodkorning "Ikki karra ikki besh" hajviy qissasida: "- Nargizxon! - shunaqangi chuqur xo'rsindimki, bir yarim oydan beri ichimda qizib yotgan olov lovullab yonib ketishdan qo'rqdimi, lip etib o'zini "Niva" ichiga urdi bu misrada

“ichimda qizib yotgan olov” so'zlarida biz yaqqol giperbolani ko'rishimiz mumkin. Sababi, insonning ichida olov lovullab yonmasligi aniq, bu jarayonda qahramonning alamzadaligi, dardlari lovullab yonayotgan olovga nisbatan o'xshatilgan va giperbola usulidan keng foydalanilgan. Shamsuddin Qays Roziy "Al-Mo'jam" asarida mubolag'ani "so'zning ziynati" deb ataydi. Uning fikricha, agar shoir oddiy voqeani boricha aytsa, u shunchaki xabar bo'ladi, lekin uni mubolag'a bilan bezasa, u san'atga aylanadi. Roziy "eng yaxshi she'r — eng yolg'onchisi" degan qadimiy qarashni qo'llab-quvvatlab, bunda mubolag'aning o'rni beqiyosligini ta'kidlaydi.

Tahlil va natijalar. Shoirlar o'zining yoki ideallashtirayotgan qahramonining his-tuyg'ulari, ichki kechinmalarini mubolag'a orqali ifodalaydi. Bu kabi lirik she'rlar ko'p. Masalan, bizning institutimizda necha yillardan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan Umida Xushvaqtova ustozimizning "Saylanma" she'riy to'plamidan "Firdavs bog'lari" she'rida quyidagicha giperbola san'atini ko'ramiz:

Tong yorishib kelar asta jilmayib,
Vujudimni quchar musaffo havo.
G'ubor bosgan dilni olaman chayib,
Xushbo'y ifor sohib esganda sabo.

Bu misrada ham boshlanishidan to so'nggigacha giperbola san'ati qo'llanilgan. Tahlil qilsak, tong asta jilmayib kelishi, vujudini musaffo havo quchishi va boshqalari. Bu she'rni o'qigan o'quvchi she'rdan estetik zavq oladi va shoiraning ilm-u tafakkuriga, go'zal she'rlar yozish qobiliyatiga faqatgina tasannolar aytadi. Husayn Voiz Koshifiy "Badoyi'ul-afkor" asarida mubolag'ani "sharaffli san'at" deb hisoblaydi. Uningcha, mubolag'a shoirning botiniy (ichki) tuyg'ularining tashqi ko'rinishidir. Shoir qanchalik kuchli his-tuyg'uga berilsa, uning mubolag'asi shunchalik baland pardalarda yangraydi. Haqiqatdan ham, bu kabi she'rlar insonni quvontiradi va har qaysi vaziyatda ilhom bera oladi. Yoki yana bir she'rlarida ya'ni "Sog'inch sohili":

Vujudimga sachratib olov,
Ishq oftobi chiqdi yo'limdan.
Ixtiyorim oldi qo'limdan,
Yurak qurg'ur yonmoqda lov-lov.

Bu baytda qahramonning yo'lidan ishq oftobi chiqdi, ixtiyorini oladi va yuragi lov-lov yonadi. Bu tahlilda ham mubolag'a yaqqol aks etgan va insonni o'ylashga, fikrlashga chorlaydi. Shu bilan birga, inson qanday buyuk zot ya'ni so'zlarni birlashtirib go'zal, ta'sirli ijod mahsuli hosil qilishga qodir ekanidan quvonadi. Anvar Hojiahmedov mubolag'aning vazifasini obrazli qilib shunday tushuntiradi: "Mubolag'a shunchaki son yoki miqdorni ko'paytirib ko'rsatish emas, balki his-tuyg'u portlashidir. Shoir 'yig'ladim' deganda hech kim achinmasligi mumkin, lekin 'ko'z

yoshimdan Nuh to'foni ko'tarildi' deganda, o'quvchi qahramon dardi qanchalik cheksiz ekanini his qiladi."

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, mubolag'a (giperbola) san'ati badiiy adabiyotning eng muhim va ta'sirchan vositalaridan biri hisoblanadi. U orqali yozuvchi va shoirlar voqea-hodisalarni oddiy bayon qilishdan chekinib, ularni kuchaytirilgan, sayqallangan va obrazli shaklda ifodalaydilar. Natijada asar o'quvchiga yanada chuqurroq ta'sir etadi, uning his-tuyg'ularini junbushga keltiradi hamda estetik zavq uyg'otadi. Mumtoz adabiyotdan tortib zamonaviy ijodkorlar asarlarigacha bo'lgan namunalar shuni ko'rsatadiki, mubolag'a san'ati barcha davr va janrlarda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shuningdek, tahlil qilingan misollar asosida aytish mumkinki, mubolag'a ko'pincha boshqa badiiy vositalar — jonlantirish, tashbeh, istiora bilan uyg'un holda qo'llanilib, tasvirning yanada mukammal va ko'p qatlamli bo'lishiga xizmat qiladi. Bu esa adabiy asarning nafaqat badiiy qiymatini oshiradi, balki uning mazmuniy chuqurligini ham ta'minlaydi. Ayniqsa, inson ruhiy kechinmalarini ifodalashda mubolag'a san'ati beqiyos imkoniyatlarga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mubolag'a san'atini chuqur o'rganish va uni to'g'ri tahlil qilish adabiyotshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, kelgusida badiiy asarlarni o'rganishda mubolag'aning turli ko'rinishlari va funksiyalarini yanada kengroq tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, yosh ijodkorlarni ushbu san'atdan samarali foydalanishga o'rgatish, ularning badiiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiahmedov A. "Mumtoz badiiyat malohati". – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 1999.
2. Hoshimov, O'. "Quyosh tarozisi" hikoya. – Toshkent: "Sharq", 2010.
3. Husayn Voiz Koshifiy "Badoyi'ul-afkor fi sanoyi'ul-ash'or". – Toshkent: "Meros", 1994.
4. Muhammad Jomrot o'g'li Po'lkan. "Go'ro'g'lining tug'ilishi". – Toshkent, 2024.
5. Nizomiy Aruziy Samarqandiy "Majma'u-n-navodir". – Toshkent: "Fan", 2021.
6. O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi". – Toshkent, 2024.
7. Rashiduddin Vatvot "Hadoyiqu-s-sehr". – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2000.
8. Shamsuddin Muhammad ibn Qays Roziy "Al-Mo'jam fi ma'oyiri ash'oril-ajam". – Toshkent: "Fan", 2010.